

Toshkent viloyati statistika boshqarmasida 2026- yil I-chorak uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida

UMUMIY HISOBOT

I. Toshkent viloyat statistika boshqarmasining Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to'g'risida umumiy axborot

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini tushuntirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan ko'rgazmali va tarqatma materiallar (plakatlar, bannerlar, bukletlar va boshqalar)ni tayyorlanib tarqatib kelinmoqda hamda tumanlar va shahar statistika bo'limlarida har chorakda kamida bir marta seminar yig'ilishlari va Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyati, ahamiyati tushuntirib borilmoqda va korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan o'tkazilgan tadbirlar boshqarmaning rasmiy veb-saytida, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilib borilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

2026-yil 5-yanvarda tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan hamda shu reja asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olishga qaratilgan ishlari amalga oshirilishi belgilangan.

III. Xavf-xatarlarni baholash¹

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha bugungi kunga qadar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni yoki kelgusida amalda tatbiq etilishi mumkin bo'lgan hujjatlarning loyihalarini to'liq korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, korrupsiyaviy omillar aniqlangan hujjatlardan voz kechish, bir-birini takrorlovchi hujjatlarni birlashtirish, byurokratik funksiyalarni umuman yo'q qilish, mamlakatda barcha hujjatlar aylanmasi tizimini qog'ozbozlikdan voz kechib, to'laqonli elektron tartibga o'tilgan.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida doimiy ravishda nazorat olib borilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilot sharnomalariga kiritish

Boshqarma tomonidan tuziladigan barcha xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha alohida band kiritilishi yo'lga qo'yilgan va boshqarma yuridik xizmati tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazib kelinishi ta'minlanmoqda;

Korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalarni bekor qilish holatlari aniqlanmadi.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida kontragentlar bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar o'tkazilmagan.

Ishga nomzodlarni tekshirish

¹ Bo'lim faqat har yillik hisobot davrida to'ldiriladi. Mazkur bo'limda Tashkilot tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarni baholashni o'tkazish uslubiyotiga muvofiq amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholash natijalari bo'yicha tahliliy axborot aks ettiriladi.

Boshqarma tizimiga ishga kiruvchi xodimlar bilan alohida suhbat o'tkazilib, korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik borasida tushunchalar berib kelinmoqda.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Boshqarmada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha har chorakda kamida bir marotaba hududiy boshqarma tizimidagi xodimlarning hamda aholi, hisobot topshiruvchi subyektlar va tadbirkorlarning korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishlari uchun huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish borasida seminar va davra suhbatlari o'tkazilib kelinmoqda va boshqarmaning **Toshvilstat.uz**- veb saytiga joylashtirilishi ta'minlanmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashi bo'yicha hududiy komissiya tomonidan o'tkaziladigan seminar-trenning va davra suhbatlarida ham ishtirok etib kelmoqda.

Boshqarmadagi xodimlarning barchasini korrupsiyaga qarshi ko'nikmalarga oid axborotlar bilan ta'minlanib, tarqatmalar, bukletlar tarqatilmogda.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakterlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Korrupsiyaviy holatlar bo'yicha 2026-yil 1-chorak davomida davomida xabar yoki murojaatlar kelib tushmagan.

Bundan tashqari, xodimlar tomonidan mansab vazifalarini suiiste'mol qilish, xaridlarni amalga oshirish, kadrlarni ishga qabul qilish bilan bog'liq ham boshqa holatlarda ham korrupsiyaviy holatlar ro'y bermagan.

VII. Monitoring va nazorat²

Boshqarma tizimidagi xodimlarni korrupsiyaviy holatga yo'l qo'ymaslik maqsadida doimiy ravishda nazorat o'rtanatilgan va ogohlantirib kelminmoqda.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari


Boshqarma tomonidan korrupsiyaga oid qonunbuzilishi holati ro'y bermagan.

IX. Xulosalar. Boshqarmada korrupsiyaning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ishlar yetarli darajada tashkil etilmogda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi.

Korrupsiyaga qarshi kurashi bo'yicha joriy yil uchun 2026-yil 5-yanvar kuni chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning bajarilishi doimiy nazoratga olingan.

Boshqarma Bosh yuriskonsulti

 F. Jo'rayev


² Tashkilotda hisobot davrida Korrupsiyaga qarshi protseduralariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish metodikasiga muvofiq o'tkazilgan tadbirlar yakunlari bo'yicha umumiy tahliliy axborot aks ettiriladi.

**Korrupsiyaga qarshi davlat dasturida nazarda tutilgan
chora-tadbirlarning ijrosi haqida
HISOBOT**

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Amalga oshirilgan choralar
1.	<p>Xodimlar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini to'ldirish va va aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish.</p> <p>Shusnigdek, boshqarmada manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik</p>	<p>2026-yil 15 yanvar</p> <p>Doimiy</p>	<p>2026-yil 15-yanvar kuni barcha xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasi to'ldirildi va tekshirib chiqildi. Bundan tashqari manfaatlar to'qnashuvi holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida muntazam ravishda nazorat olib borilmoqda. 2026 yil mart oyida boshqarma boshqaruv xodimlaridan lavozim doirasida yuklatilgan xizmat vazifalarimni bajarishda, statistika ishlari dasturid belgilangan statistika hisoboti shakllarini o'z vaqtida va sifatli qamrovini ta'minlashga, davlat muassasalari, tadbirkorlik subyektlaridan statistik hisobotlarni qabul qilish jarayonida har qanday korrupsion huquq buzarlilar va jinoyatlar sodir etmaslikka, shartnomaviy va konsalting xizmatlari ko'rsatish borasida shartnomalar tuzish hamda subyektlarning rahbarlari yoki mas'ul xodimlariga nisbatan ma'muriy jarima bayonnomalarini rasmiylashtirish davrida ularga nisbatan ta'magirlik yoki boshqa korrupsiyaga oid xatti-harakatlar sodir etmaslikka kafolat xatlari olindi.</p>
2.	<p>Boshqarma tomonidan tuziladigan barcha xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha alohida band kiritilishini va rahbar tomonidan imzolangunga qadar boshqarma yuridik xizmati tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilishini</p>	<p>Doimiy</p>	<p>Barcha xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha alohida band kiritilmoqda hamda tashkilot rahbari tomonidan imzolangunga qadar yuridik xizmati tomonidan huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi</p>

	ta'minlash		ta'minlanmoqda.
3.	Boshqarma tizimiga ishga kiruvchi xodimlar bilan alohida suhbat o'tkazish va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik borasida tushunchalar berish.	Ishga qabul qilish davomida	Ishga qabul qilingan xodimlar bilan alohida suhbat o'tkazilib, korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik borasida tushunchalar berildi.
4.	Boshqarmada korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha har oyida kamida bir marotaba seminar va davra suhbatlari o'tkazish.	Har chorakda	2026-yil 8-yanvar, 12-fevral va 13-mart kunlari Toshkent viloyati statistika boshqarmasida davra suhbatlari va seminar yig'ilishlari o'tkazildi.
5.	Boshqarma tizimidagi xodimlarni korrupsiyaviy holatga yo'l qo'ymaslik maqsadida doimiy ravishda nazorat o'rnatish.	Doimiy	Boshqarma tizimidagi xodimlarni korrupsiyaviy holatga yo'l qo'ymaslik maqsadida doimiy ravishda ogohlantirilib nazorat qilinmoqda.

Boshqarma Bosh yuriskonsulti



F. Jo'rayev